

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11501032>

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA MINIATYURA SAN'ATINING RIVOJI

Bog'bekova Shoxista Babajanovna

"Ichan-Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi "Tasviriy san'at" bo'limi mudirasi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada miniatyura san'atining paydo bo'lishi va mustaqillik yillarida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan miniatyura san'ati namoyandalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Bog'dod, Tabriz, Samarkand, Herat, Shiraz, Bahadir Yo'ldoshev, Abduhakim Karimov, Anvar Isroilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom Shoyakubov, Rasul Po'latov, Abdulla Nazirov.

DEVELOPMENT OF MINIATURE ART IN UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

This article provides information about the emergence of miniature art and representatives of miniature art who worked in Uzbekistan during the years of independence.

Keywords: Baghdad, Tabriz, Samarkand, Herat, Shiraz, Bahadir Yoldoshev, Abduhakim Karimov, Anvar Israfilov, Jaloliddin Ashrapov, Shoilhom Shoyakubov, Rasul Polatov, Abdulla Nazirov.

O'tmish, bugun va kelajak tasavvur tasviri birgina sirt yuzasiga birlashishi mumkin bu ham albatta miniatyurada bo'lishi mumkin. Rassomlar O'rta Osiyo, O'rta asrlar Sharq miniatyurasining ijodiy merosini hamda an'analarini diqqat bilan o'rganishmoqda, miniatyura rangtasvirning boy vositalarini, uni chizishning nozik usullari tizimini asta sekinlik bilan o'zlashtirishlari, aniq va tarixiy material, maishiy turmush madaniyat bo'yicha chuqur bilimga egaliklari tufayli uni yanada rivojlantirish yo'llarini izlaganlari, bugungi o'zbek rangtasviri, kitobot san'atining tub ildizi bu shubhasiz miniatyura san'ati bilan bog'liqdir.

Miniatyura san'ati ko'hna tarixga ega ekanligi tarixchilar tomonidan ham isbotlangan. Qadimda Xitoy, Yaponiya, Koreyada miniatyuralar yaratishda lakli

rangtasvir san'atidan keng foydalanishgan. U XV asrda O'rta Osiyoda, XVI-XVIII asrlarda Eronda mashhur bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharq madaniy markazlari bo'lgan Bog'dod, Tabriz, Samarqand, Hirot, Sheroz kabi shaharlarda X-XIX asrlar davomida maxsus miniatyura maktablari mavjud bo'lgan, ba'zan ular yuksak darajada rivojlangan, ba'zan esa tanazzulga yuz tutgan.

U O'zbek xalqining eng nafis ijod turlaridan biridir. Tarixiy manbalarga ko'ra, surat solingan lakli qutichalar XVI asrda Buxoroda yasalgan ekan. Bu davrdagi lakli miniatyura namunalari bizgacha yetib kelmagan, hunarmandchilik-ning bu turiga xos bo'lgan ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari esa unutilib ketgan. 1960-yillarda O'zbekistonning bir qator musavvirlari va xalq ustalari ushbu ajoyib san'at turini qayta tiklashga bel bog'ladilar. Ular orasida taniqli o'zbek musavviri Chingiz Axmarov va uning shogirdlari Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov hamda o'sha paytda yosh, navqiron san'atkorlar Niyozali Xolmatov, Shomahmud Muhammadjonov, Abduvosit Qambarov, G'ayrat Kamolov, Munira Sotiboldieva va boshqalar bor edi. Ijodiy ustaxona tashkil etilib, unga o'z asarlarida Sharq miniat-yurasining ko'p asrlik an'analarini izchillik bilan rivojlantirib kelayotgan usavvir Chingiz Axmarov rahbarlik qildi. Mutaxassislarning aniqlashicha, Sharqdagi tosh qog'ozdan ishlangan buyumlarga naqsh solish usuli Fedoskino, Palex, Mstera, Xoluy markazlariga mansub lakli miniatyura san'atiga o'xshab ketar ekan. Sanamnavislik usullarini meros qilib olgan rus miniatyura ustalari qo'llaydigan badiiy ifodalash vositalarining negizi sifatidagi jo'shqin rangtasvir usuli ko'p jihatdan Sharqning O'rta asrlardagi miniatyurachilari tajribasini eslatadi.

2020-yilda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaning 15-sessiyasi davomida Ozarbayjon, Eron Islom Respublikasi, Turkiya va O'zbekistonning miniatyura san'ati insoniyatning nomoddiy madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Miniatyura san'ati Shashmak musiqasi, Navro'z, Xorazm "Lazgi" raqsi va boshqa ro'yxatga kiritilgan elementlar bilan bir qatorda O'zbekistondan ro'yxatga kiritilgan sakkizinch nomoddiy-madaniy meros bo'ldi. Miniatyura ko'p asrlar davomida mavjud bo'lishiga qaramay, o'tmish va hozirgi zamon o'rtasida ko'prik bo'lib, rivojlanishda davom etmoqda.

Tasviriylar san'atda miniatyurani qadimgi rassomlar, xalq ustalari yaratgan ijod namunalari, hozirgi zamonaviy rassomlar va xalq amaliy san'atida, kitob grafikasi, Dastgohli akademik rangtasvir va kompozitsiyada va san'atni turli yo'naliishlarida zamonaviylashtirilib amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriylar san'at namunasini yaratish ustida ishlashni shakllantirishga yo'naltirilgandir. San'atda mazmun va g'oyaning eng yaxshi yechimini topish, ijodiy mahoratni oshirish nafosat tarbiyasining zaruriy qismi, muhim omillardan biridir. Miniatyura san'ati janrlarni ta'lim jarayonida chuqur o'rganilishi yoshlarni pedagog

hamda ijodkor sifatida shakllantiradi. Miniatyura san'ati tur va janrlari barkamol avlodni pedagogik ijodiy qobilyatni shakillantrish, g'oyaga asosan asar yaratish, tasavvurni shakllantirish ta'lim-tarbiyasi bilan ishlashning maqsad va vazifalari, prinsiplari, usul va shakllari, metodologiyasi, muammolari va ularni bartaraf etish chora tadbirlarini o'z ichiga qamrab olgan.

Lakli miniatyura san'ati – g'oyat ulkan qunt, mahorat, bilim, nozik hissiyot talab qiladigan ijod turidir. Hozirgi miniatyura ustasi Sharq mumtoz miniatyurasining yuksak cho'qqilariga bir oz bo'lsada yaqinlashishga intilmasdan ijod qila olmaydi. Musavvirlarning navqiron avlodiga mansub yoshlar o'z ijodlarida avvalo miniatyura san'atining an'anaviy qonun-qoidalalariga amal qilmoqdalar. Ijodkorlarning Abulqosim madrasasida joylashgan hujralari o'zining shinamligi, ularda saf tortib turgan tayyor qutichalar, qadimgi qog'ozlarga solingan chizmalar, kitoblar, badiiy materiallar diqqat-e'tiborni tortadi. Ehtimol, qo'lyozma kitoblar ustida ko'z nurini to'kkan O'rta asrlardagi musavvir ustalarni ham ana shunga o'xshagan ijodiy muhit o'rab turgan bo'lsa ne ajab: bu yerda nihoyatda sokin va osoyishta ruhiyat hamda orzu-niyatlar hukm suradi.

Mustaqillik yillarida miniatyura san'atiga e'tibor yanada kuchaydi. O'zbek tasviriy san'atida ko'plab miniatyura asarlaridagi turli ko'rinishga ega bo'lган ijodiy g'oyadagi kompozitsiyalarni ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 1997-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil topdi. Institutga ulug' miniatyurachi Kamoliddin Behzod nomi berildi. Bu ramziy ma'noga ega edi. Negaki u o'rta osrdayoq butun dunyoga mashxur bo'lган, Sharq miniatyura maktabiga asos solgan edi. Institutni nafaqat jahonning yevropacha yo'nalishidagi, shu bilan birga to'la ma'noda Sharqning boy merosini o'zlashtirish asosida tashkil etilishini davrning o'zi taqozo etgan edi. San'atda miniatyura, kitoblar bezagi, naqqoshlik rivojlandi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining akademiklari ustozlarning an'analarini hozirgi kunda san'atning mashhur ustalari A.Nuridinov, J.Umarbekov, A.Mirzaev, L.Ibragimov ijodida zamonaviy g'oyalar simvolik ramzlarni rang-barang kompozitsiya uyg'unligi, dastgohli akademik rangtasvirda o'zgacha usul va vositalarni qo'llab davom ettirmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. A.Madraimova, N.Normatov. Sharq miniatyura maktablari (maqolalar to‘plami)
2. Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Технология и условия
3. Jabborova Shahzoda Husen qizi (2022) Vizual faoliyat jarayonini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ta’lim jarayonida qo‘llash. IJODKOR O‘QITUVCHI JURNALI 15(02) 24-27
4. Ш.Шоёкубов. Ўзбекистон бугунги миниатюра рангтасвири Мусаввир “Шарқ” нашрёт –матбаа концернининг Бош таҳририяти Тошкент-1994
5. Камолидин Беҳзод 545 йиллиги Тошкент -2000 йил
6. Патхиддин Шабаратов. Миниатюра. ўқув қўлланма. Тафаккур. Тошкент.2011.